

"Uzbekistan Airways"dan o'quvchi va talabalar uchun yangi yil chegirmalari!

2019 11 Dekabr

"Uzbekistan Airways" 2019-yilning 20-dekabridan 2020-yilning 6-yanvarigacha, qishki ta'til vaqtiga kollej o'quvchilari va respublikaning barch oliy o'quv yurtlari talabalariga mahalliy qatnovlar uchun 50 foizlik chegirmalarni taqdim etadi.

Chegirmali aviabiletlarni "Uzbekistan Airways"ning sotuv ofislarida chegirmalarni olish huquqini beruvchi, tegishli hujjatlarni taqdim etgan holda xarid qilish mumkin.